Ayniqsa, iqtisodiyoti asosan agrar sohalarga tayangan mamlakatlar misolida bu modelni joriy etish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarining nafilligini oshirish, ishlab chiqarish zanjirlarini chuqurlashtirish va eksport salohiyatini kengaytirish mumkin. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, klasterlashtirishni iqtisodiyotga tatbiq etish nafaqat hududiy ixtisoslashuvni ta'minlaydi, balki bozor ishtirokchilari o'rtasida uzviy hamkorlik va innovatsion sinergiyani ham shakllantiradi. Ma'lumki, "klaster" tushunchasi ilk bor 1980-yillarda G'arb iqtisodiy makoniga kirib kelgan bo'lib, o'shandan beri ko'plab sohalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirishda asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'lib kelmoqda.

Serquyosh O'zbekiston zamini qishloq xo'jaligi, ayniqsa bog'dorchilik mahsulotlarini yetishtirish borasida ulkan tabiiy resurs va agroiqtisodiy salohiyatga ega. Bugungi kunda ushbu salohiyatni yanada to'liq va samarali ishga solish orqali bog'dorchilik mahsulotlaridan olinadigan daromadlarni ko'paytirish – qishloq xo'jaligi sektorining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilanmoqda. Meva-sabzavotchilik yo'nalishida mavjud imkoniyatlarni yanada oqilona va bozor talablariga mos ravishda safarbar qilish zarur.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda yiliga 21 million tonnadan ortiq meva-sabzavot mahsuloti yetishtiriladi. Bu ko'rsatkich yurtimiz agroiqlimiy sharoitlarining qulayligi va dehqonchilik tajribasi yuqoriligidan dalolat beradi. Biroq, mavjud eksport salohiyatini to'liq ishga solish zarurati hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda.



Jumladan, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hozirgi paytda atigi 1,5 million tonnasi tashqi bozorlarga chiqarilmoqda. Bu esa kelgusida qo'shilgan qiymat yaratish va eksport daromadlarini oshirish uchun ulkan imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba asosida qaralganda, intensiv bog'dorchilik texnologiyalarini keng joriy etish orqali bir gektar yer maydonidan 70–100 tonnagacha, ayrim mevalardan esa 130 tonnagacha hosil olish mumkinligi kuzatilmoqda. O'z navbatida, ushbu yondashuvni kengaytirish orqali yurtimizda ham hozirda 10–30 tonna oralig'ida bo'lgan hosildorlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirish imkoniyati mavjud. An'anaviy bog' va tokzorlar samaradorligini oshirish ham modernizatsiya va ilmiy yondashuv asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin.

Mahsulotlarni samarali saqlash, saralash, qadoqlash, qayta ishlash va eksportga tayyorlash tizimini tashkil etish borasida muhim tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 31 ta agrologistika markazi faoliyat yuritmoqda. Bu markazlar kelgusida butun tarmoq uchun yagona integratsiyalashgan infratuzilma poydevori bo'lib xizmat qilishi mumkin. Biroq, ularning to'liq quvvatda ishlashini ta'minlash maqsadida aylanma mablag'larni kengaytirish, resurs ta'minotini barqarorlashtirish va mahsulot yetkazib berish tizimining uzluksizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi bosqichda hukumat tomonidan ilgari surilayotgan agrar islohotlar va texnologik modernizatsiya choralarini bog'dorchilik tarmog'ini yuqori qo'shilgan qiymatli eksport yo'nalishiga aylantirish, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiluvchi tarmoq sifatida rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonlarda xususiy sektor ishtirokini faollashtirish, ilmiy-tadqiqot yutuqlarini amaliyotga joriy etish va xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali meva-sabzavotchilikdan olinadigan daromadlarni sezilarli darajada oshirish mumkin.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda klasterlar turli hududiy va institutsional model asosida tizimlashtirilgan bo'lib, ular orasida Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo va Yaponiya modellari alohida ajralib turadi. Yevropa va Shimoliy Amerika klasterlashuv modellari, asosan, ichki raqobatni iqtisodiy rivojlanish uchun asosiy turtki sifatida ko'radi. Bunda kompaniyalar o'rtasidagi raqobat samaradorlikni oshiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Osiyo modeli esa davlatning strategik boshqaruvdagi yetakchilik rolini ta'kidlab, klasterlarning markazlashtirilgan va rejalashtirilgan shaklda rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Yaponiya modeli esa rivojlanish yo'nalishining oldindan belgilangan vektori doirasida yuzaga keladigan ichki raqobatga asoslanadi. Bu modelda kompaniyalar o'zaro raqobatlashish orqali yagona tizimda o'sishga erishadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda klaster tushunchasi ko'pincha sanoat majmuasi sifatida izohlanadi. U hududiy jihatdan yaqin joylashgan, texnologik jihatdan o'zaro bog'langan va faoliyatida ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, asosiy ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar tarmog'ining konsentratsiyasidan iborat bo'lgan iqtisodiy birlik sifatida ko'riladi. Bu yondashuv tarmoq yondashuviga muqobil sifatida namoyon bo'ladi, chunki u nafaqat vertikal integratsiyani, balki gorizontal hamkorlikni ham o'z ichiga oladi.

Klasterning konseptual asoslari ilk bor Alfred Marshallning 1890-yilda nashr etilgan "Principles of Economics" (Iqtisodiyot prinsiplari) asarida shakllangan bo'lib, u sanoat tarmoqlarining muayyan geografik hududda ixtisoslashuvi orqali hosil bo'ladigan iqtisodiy aglomeratsiya afzalliklarini ta'riflagan. Biroq, "klaster" atamasi ilmiy muomalaga ilk bor amerikalik iqtisodchi Maykl Porter tomonidan kiritilgan. Uning ta'rificha, klaster – bu ma'lum bir iqtisodiy yo'nalishda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar, institutlar, ta'lim va ilmiy markazlarning geografik jihatdan yaqin, o'zaro bog'liq va hamkorlikda ishlaydigan majmuasidir. M. Porter o'zining tadqiqotlarida Italiyadagi poyabzal ishlab chiqarish sanoatini klasterlashuvning tipik modeli sifatida tahlil qilib, bu tuzilmani o'rta asrlardagi hunarmandlar gildiyalari bilan qiyoslaydi. Uning fikricha, klasterlar o'zaro hamkorlik, madaniy identiklik va raqobatni uyg'unlashtirgan holda, muayyan "submadaniyat" asosida shakllanadi.

Tarmoq tuzilmalarining xilma-xilligini xorijiy olimlar, xususan, P. Drucker, K. Imai, H. Itami, J. Johanson, M. Castells, R. Miles, B.Z. Milner, R. Paturel, D. Rockart, Ch. Snow, G. Torelli, H. Hakansson va D. Shortlar keng tahlil qilganlar. Ularning qarashlariga ko'ra, zamonaviy bozor sharoitida tarmoq ishtirokchilari nafaqat mahsulot ayirboshlash orqali, balki qo'shma loyihalarda hamkorlik qilish, o'zaro sarmoya kiritish yoki axborot almashinuvi orqali o'zaro bog'lanadi. Tarmoqdagi kompaniyalar yuridik jihatdan mustaqil bo'lsa-da, moliyaviy va institutsional jihatdan o'zaro bog'liq majburiyatlarga ega bo'ladi. J. Zudof va A. Bindeler ta'rifiga ko'ra, tarmoqlar bu – turli ixtisoslashuvga ega, ammo faoliyatida strategik yaqinlik va axborotga asoslangan o'zaro ishonch bilan ajralib turadigan tijorat subyektlari o'rtasidagi uzoq muddatli kooperatsion munosabatlardir.

Boshqa tomondan, rus olimi A.V. Glotko tomonidan ilgari surilgan konsepsiyaga ko'ra, agrosanoat klasteri – bu agrosanoat kompleksida faoliyat yurituvchi, texnologik jihatdan bog'langan va iqtisodiy manfaatlar asosida birlashgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning hududiy va innovatsion integratsiyalashgan tuzilmasidir.




Bu modelda ishtirokchilar o'rtasida resurslar, texnologiyalar va ma'lumotlar almashinuvi, shuningdek, yagona ishlab chiqarish zanjiri orqali koordinatsiyalashgan boshqaruv mexanizmlari mavjud bo'ladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kuzatuvlarimiz asosida bog'dorchilikda klasterlarni joriy qilishda Yevropa tajribasini qo'llash imkoniyatlari bo'yicha ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqildi. Maqolani tayyorlash jarayonida kuzatish va tanlab olish, so'rovnomalar, ilmiy-nazariy hamda empirik kuzatuv usullaridan foydalanildi.


## TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon miqyosida klasterlarning ijobiy samara berayotgani sababli meva yetishtirish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda (1-rasm).



1-rasm. Jahonda meva yetishtirish holati

Jahonga mashhur Statista ma'lumotlariga ko'ra, 1990-yilda jahonda 401,6 million tonna meva yetishtirilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich qariyb 2,3 martaga oshib, 933,1 million tonnaga yetgani kuzatiladi. Jahonda eng ko'p meva, shubhasiz, Xitoyda yetishtiriladi (2-rasm).




2-rasm. Dunyo mamlakatlarida meva yetishtirish holati (mln. tonna, 2022-y)



2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2022-yilda meva yetishtirish bo'yicha yetakchi davlat Xitoy bo'lib, u 253,9 million tonna meva yetishtirgan. Undan keyin Hindiston – 107,9 million tonna, Braziliya – 39,8 million tonna meva bilan keyingi o'rinlarni egallagan. O'zbekistonga ko'proq meva eksport qiluvchi davlatlardan biri bo'lgan Turkiya 25 million tonna, Eron esa 16 million tonna meva yetishtirib, jahon bo'yicha mos ravishda 4- va 11-o'rinlarni egalladi.

O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda yetishtirilgan mevalar hajmi 5,9 million tonnani tashkil etdi. Qo'shni davlatlardan Afg'oniston – 3,6 million tonna, Qozog'iston – 3,2 million tonna, Tojikiston – 1,4 million tonna, Turkmaniston – 760 ming tonna, Qirg'iziston esa 410 ming tonna meva yetishtirgan.

"Dunyoda qaysi meva ko'p yetishtiriladi?" degan savolga aksariyat hollarda olma deb javob beriladi. Biroq bu noto'g'ri tasavvurdir. 3-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda dunyoda eng ko'p yetishtirilgan meva – banan bo'lgan. U umumiy hisobda 135,1 million tonna miqdorida yetishtirilgan. Shuningdek, olma – 95,8 million tonna, apelsin – 76,4 million tonna, uzum – 74,9 million tonna hajmda yetishtirilgan (3-rasm).



3-rasm. Dunyo meva turlarining yetishtirish holati (mln. tonna, 2022-y).

Yurtimizda yetishtirish imkoniyati mavjud mevalardan dunyo bo'ylab quyidagi miqdorlarda hosil olinmoqda: nok – 26,4 million tonna, shaftoli – 26,4 million tonna, limon – 21,5 million tonna, olxo'ri – 12,4 million tonna, xurmo – 9,8 million tonna, o'rik – 3,9 million tonna, gilos – 2,8 million tonna, olcha – 1,6 million tonna.

Tadqiqotlarimiz davomida Yevropadagi bir qator muvaffaqiyatli bog'dorchilik klasterlari o'rganib chiqildi. Eng muvaffaqiyatli bog'dorchilik klasterlari sifatida quyidagilarni misol keltirish mumkin:

– Niderlandiya: bu yerda bog'dorchilik klasterlari yuqori darajada rivojlangan bo'lib, ular bir nechta ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlovchi fermerlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadi.

– Ispaniya: Almeriya mintaqasidagi bog'dorchilik klasterlari issiqxona texnologiyalari va ilg'or sug'orish tizimlari bilan mashhur bo'lib, bu hududda ishlab chiqarilgan mahsulotlar asosan Yevropa Ittifoqi bozorlariga eksport qilinadi.

Yevropada ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar bog'dorchilik klasterlari bilan faol hamkorlik qiladi. Bu hamkorlik texnologik innovatsiyalar, mahsulot sifati, eksport quvvatini oshirish, yer unumdorligi va barqaror qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarda amalga oshiriladi.


Yevropa Ittifoqidagi bog'dorchilik klasterlari innovatsiyalar va yangi texnologiyalar yo'nalishida yangi qishloq xo'jaligi texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tez tatbiq etishga qaratilgan. Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni inobatga olgan holda, ilmiy-tadqiqot grantlari va loyihalari hukumatlar tomonidan moliyalashtiriladi.

Yevropa bog'dorchilik klasterlari eng so'nggi texnologiyalar, innovatsiyalar va ilg'or menejment uslublari yordamida raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning muvaffaqiyati davlat siyosati, ilmiy-tadqiqot ishlari va barqaror rivojlanish strategiyalariga chambarchas bog'liq.

Yevropa Ittifoqiga (EI27) a'zo davlatlar tomonidan taqdim etilgan European Cluster Collaboration Platform (ECCP) ma'lumotlariga ko'ra, Yevropada mavjud 1091 ta klasterning 572 tasi besh yetakchi davlat – Ispaniya,



Germaniya, Fransiya, Italiya va Polshada joylashgan. Bu jami klaster tashkilotlarining 52 foizini tashkil qiladi. Mazkur mamlakatlar Yevropa Ittifoqining yalpi ichki mahsulotining 69,6 foizini ishlab chiqarishi inobatga olinsa, ushbu ulush iqtisodiy jihatdan o'rinli hisoblanadi (4-rasm).



4-rasm. Yevropa klaster hamkorlik platformasi (ECCP)ga a'zo klasterlar a'zolari soni tahlili.

Agar European Cluster Collaboration Platform (ECCP) tarkibidagi klasterlarning a'zolari soni tahlil qilinsa (4-rasm), Yevropa Ittifoqining EI27 guruhidagi klasterlarining taxminan 62 foizi 100 tagacha a'zoga ega ekani ko'rinadi. Shu bilan birga, klasterlarning 22 foizi 101 dan 200 tagacha a'zoga ega bo'lsa, atigi 5 foiz klasterlarda 400 dan ortiq a'zolar mavjud. Umuman olganda, EI27 klasterlarining o'rtacha a'zo soni 170 atrofida deb baholanmoqda. ECCP umumiy tizimiga esa 164 700 ta xo'jalik a'zolik qilgan.

Yevropa Ittifoqidagi klasterlarning xarakterli jihati – ularning ilmiy-tadqiqot hamkorliklariga bevosita bog'langanligidir. Aynan shu jihat O'zbekistonda ham joriy etilishi zarur. Klaster faoliyatini tegishli hududdagi yirik qishloq xo'jaligi universitetlari bilan integratsiyalash orqali, ilm-fan va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash mumkin.

Tadqiqotlar davomida Yevropa Ittifoqining rivojlangan yetakchi davlatlaridagi bog'dorchilik klasterlari va ularning samaradorlik ko'rsatkichlari chuqur o'rganildi (1-jadval).

1-jadval. Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi muvaffaqiyatli bog'dorchilik klasterlarlarining xususiyatlari.

№	Mamlakat	Klaster nomi	Asosiy mahsu-lotlar	Ilmiy-tadqiqot hamkorlari	Tashkiliy yordam
1.	Nider-landiya	Aalsmeer Gul Bozori	Gullar	Wageningen Universiteti	Davlat subsidiyalari
2.	Ispaniya	Almeriya Bog'dorchilik Klasteri	Sabzavot	Almeriya Universiteti	Davlat va xususiy sektor investitsiyalari
3.	Italiya	Emiglia-Romagna qishloq xo'jaligi klasteri	Meva, uzum	Bologna Universiteti	Moliya va marketing yordam
4.	Fransiya	Provans Bog'dorchilik Klasteri	Meva, uzum	Montpellier Universiteti	Barqaror rivojlanish strategiyalari

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Niderlandiyada bog'dorchilik sohasida yetakchi klaster – Aalsmeer gul bozori hisoblanadi. Ushbu klaster asosan gul yetishtirishga ixtisoslashgan bo'lib, uning ilmiy-tadqiqot hamkori sifatida Vageningen universiteti faoliyat yuritadi. Klasterning tashkil etilishida davlat tomonidan subsidiyalar orqali moliyaviy ko'mak ko'rsatilgan. Ispanyaning Almeriya bog'dorchilik klasteri asosan sabzavot yetishtirishga ixtisoslashgan. Uning ilmiy-tadqiqot hamkori – Almeriya universiteti hisoblanadi. Italiyadagi Emilia-Romagna



qishloq xo'jaligi klasteri va Fransiyadagi Provans bog'dorchilik klasteri mos ravishda Bolonya universiteti hamda Monpelye universiteti bilan hamkorlik qiladi. Ushbu klasterlar meva va uzum mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan (2-jadval).

2-jadval. Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi yirik bog'dorchilik klasterlarlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari<sup>1</sup>

№	Mamlakat	Bog'dorchilik mahsulotlari	Yirik klasterlar soni	Yillik ishlab chiqarish (mln tonna)	Eksport qiymati (mlrd €)
1.	Niderlandiya	Gullar, sabzavot	5	2,5	12,0
2.	Ispaniya	Sabzavot, meva	3	4,0	10,5
3.	Italiya	Meva, uzum	4	3,8	9,2
4.	Fransiya	Meva, uzum	3	3,2	8,7

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ilmiy-tadqiqotlarning yo'lga qo'yilganligi sababli, Niderlandiyada gullar va sabzavotlar yetishtiruvchi asosiy 5 ta yirik klaster yil davomida 2,5 mln tonna mahsulot yetishtirib, 12,0 mlrd yevro qiymatida eksportni ham amalga oshirmoqda. Ispaniyada meva-sabzavot yetishtiruvchi 3 ta yirik klaster 4,0 mln tonna mahsulot ishlab chiqarib, eksport qiymati 10,5 mlrd yevroni tashkil etgan. Italiya va Fransiyadagi meva-sabzavot yetishtiruvchi klasterlar mos ravishda 9,2 va 8,7 mlrd yevrolik eksport qiymatiga egaligi Yevropa Ittifoqida ilmiy-tadqiqotlar va qishloq xo'jaligining hamkorligi iqtisodiyotga qanchalik naf keltirayotganini ko'rsatmoqda.

Shu o'rinda, mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ilm-fan hamda ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas, deb hisoblaymiz. "Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir", – deya ta'kidlaydi Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Prezidentining asosiy maqsadi – o'zbek farzandlarining bilimli, baxtli va boy bo'lishiga erishishdir. Davlat rahbarining tinimsiz mehnati aynan shu maqsad yo'lida kechmoqda. "Ta'lim sohasida farzandlarimiz zamonaviy bilim va ko'nikmalarni puxta egallashi uchun eng qulay sharoitlar yaratishni izchil davom ettiramiz", – dedi Prezident<sup>2</sup>.

Ilm-fanning hissasini Yevropa Ittifoqidagi bog'dorchilik klasterlarining iqtisodiyotga ta'siri misolida ham yaqqol ko'rish mumkin (3-jadval).

3-jadval. Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi bog'dorchilik klasterlarlarining milliy iqtisodiyotga ta'siri ko'rsatkichlari<sup>3</sup>

№	Mamlakat	Yaratilgan ish o'rinlari soni (ming kishi)	YaMMga qo'shilgan qiymat (mlrd €)
1.	Niderlandiya	120,0	15,0
2.	Ispaniya	100,0	12,0
3.	Italiya	90,0	11,0
4.	Fransiya	85,0	10,0

Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi bog'dorchilik klasterlarining milliy iqtisodiyotga ta'siri ko'rsatkichlari shuni anglatadiki, Niderlandiya, Ispaniya, Italiya va Fransiyada klasterlar 85,0–120,0 ming kishigacha qo'shimcha ish o'rinlari yaratish bilan birga, yalpi ichki mahsulotga ham qo'shimcha 10,0–15,0 mlrd yevro miqdorida qiymat qo'shmoqda. Klasterlar nafaqat mahsulotni sotish imkoniyatlarini yaxshilaydi, balki iqtisodiyot uchun qo'shimcha ish o'rinlarini yaratib, daromad manbai sifatida ham xizmat qilmoqda.

Shu sababli, Yevropa Ittifoqida klasterlar rivojiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Istalgan turdagi korxonalarda tashkil etilish bosqichi mavjud bo'lganligi bois, ular bir kun kelib daromadsizlikka uchrab, inqirozga yuz tutib bozordan chiqib ketishi ehtimoli ham mavjud. Shu bois, korxonalar hayotiy davrini uzaytirishning muhim omillaridan biri – ilmiy tadqiqotlarga e'tibor qaratishdir. Ilmiy tadqiqotlarda innovatsiyalarga va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan yondashuv Yevropa Ittifoqida muhim ahamiyat kasb etmoqda (4-jadval).

2 Mirziyoyev Sh.M. Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. 9.12.2023 www.daryo.uz

3 Ergashov, U. Z. (2022). MEVA-SABZAVOTCHILIK VA UZUMCHILIK TARMOG 'INI YANADA RIVOJLANTIRISH, SOHADA YARATILAYOTGAN QO 'SHIMCHA CHORA-TADBIRLARNING IQTISODIY AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, (Conference), 211-217.



#### 4-jadval. Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi bog'dorchilik klasterlarlarida ilmiy-tadqiqot loyihalari, yo'nalishlari va qiymati

No	Mamlakat	Ilmiy-tadqiqot loyihalari soni	Innovatsion texnologiyalar	Ilmiy-tadqiqot byudjeti (mln €)
1.	Niderlandiya	50	Avtomatizatsiya, sensor texnologiyalar	200
2.	Ispaniya	40	Issiqxona texnologiyalari, suv tejash tizimlari	180
3.	Italiya	35	Organik qishloq xo'jaligi, zamonaviy sug'orish tizimlari	150
4.	Fransiya	30	Biomuhit monitoringi, pestitsidlarni kamaytirish	140

Bunda asosiy e'tibor bog'larda avtomatizatsiya hamda sensor texnologiyalarni joriy etishga qaratiladi. Ispaniyada esa yiliga 40 taga yaqin loyiha uchun 180 mln yevro ajratilib, asosiy e'tibor issiqxona texnologiyalari va suvni tejovchi tizimlarga qaratiladi. Bu holat Ispaniyaning o'ta issiq iqlimi sababli ushbu yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilishiga olib kelmoqda. Yevropaning yana bir issiq va nam iqlimli davlati Italiya esa organik qishloq xo'jaligi va zamonaviy sug'orish tizimlariga e'tibor qaratib, bu yo'nalishlar uchun yillik 150 mln yevro mablag' ajratmoqda. Fransiyada esa biomuhit monitoringi va pestitsidlardan foydalanishni kamaytirish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda va bu borada yiliga 140 mln yevro ajratiladi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon mamlakatlarining bog'dorchilik klasterlari sohasidagi tajribasidan O'zbekiston sharoitida ham samarali foydalanish mumkin. Klasterlardagi ishlab chiqarish jarayoniga innovatsion loyihalarni jalb etish, agrar sohadagi ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, ushbu yo'nalishda davlat ko'magini ta'minlash muhim hisoblanadi. Buning uchun hozirgi kunda innovatsion va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarur. Bog'dorchilik klasterlari innovatsiyalar va yangi texnologiyalar yo'nalishida yangi qishloq xo'jaligi texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etishni tezda tatbiq etmoqda. Shuningdek, bu yo'nalish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ham qishloq xo'jaligida klaster ulushini oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday yondashuv, birinchidan, mahsulot eksporti hajmini oshiradi. Ikkinchidan, aholining bandligini ta'minlaydi. Uchinchidan esa, aholini vitaminlarga boy, sarhil mevalar bilan barqaror ta'minlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Mirziyoyev Sh.M. Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. 9.12.2023. [www.daryo.uz](http://www.daryo.uz)
- Портер Майкл. Конкуренция: Пер. с англ. / Майкл Портер. – М.: Вильямс, 2003. – 605 с.
- Хакимов А. Енгил sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2018.
- Ферова И.С., Коженова Т.В., Шорохов Р.Г. Промышленные кластеры и их роль в развитии промышленной политики региона. – М.: ИНФРА-М; Красноярск: Сиб. федер. ун-т, 2018. – 247 с.
- Пятинкин С.Ф., Быкова Т.П. Развитие кластеров: сущность, актуальные подходы, зарубежный опыт. – Минск: Тесей, 2018.
- Миндлин Ю.Б. Зарубежный опыт функционирования кластеров в экономически развитых странах // Экономические науки, 2009. – № 12.
- Кластер ҳамкорлиги бўйича Европа платформаси расмий веб-сайти маълумоти. URL: <https://www.clustercollaboration.eu>
- Дворцов В.И. Пространственное развитие территории на основе кластерных технологий // Менеджмент в России и за рубежом, 2018. – № 2.
- Boboyev Shodiyor Xurozmatovich. O'zbekistonda agrosanoat klasterlarini tashkil etishda xorijiy davlatlar tajribasi // Janubiy Orolbo'yi gidrolik va gidroekologik muammolari: Bugun va kelajagi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 138-bet.
- Ergashov U.Z. Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada yaratilayotgan qo'shimcha chora-tadbirlarning iqtisodiy ahamiyati // Academic Research in Educational Sciences. – (Conference), 2022. – B. 211–217.
- Ergashov U.Z., Boboyev S.X. Ilmiy tadqiqotlarda qishloq xo'jaligi klasterlarining o'rganilishi // Academic Research in Educational Sciences. – 2023. – 4 (SamTSAU Conference 1), B. 820–831.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>